

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Kimyo-texnologiya” fakulteti

“Kimyoviy texnologiya” kafedrası

“Himoyaga ruhsat etildi”

Fakultet dekani

_____ A.A. Mamaxanov

“ ____ ” _____ 2017 yil

5320800 – Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi
bakalavriatura ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Tursunova Dilafruz Abdulazizovna

“Buyuk kelajak servis MChJ sharoitida gazeta mahsulotlari ishlab chiqarishni
loyihalash” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi: _____ D.A. Tursunova

BMI rahbari: _____ kat.o'qt. A.S. Sobirov

Kafedra mudiri: _____ dots. D.Sh. Sherquziyev

Namangan-2017

Mundarija

Kirish.....	3
I.Texnologik qism	7
1.1.Gazeta nashrlari uchun uskunalar tanlash.....	19
1.2.Umumiy texnologik sxema.....	29
1.3. Gazetalarning o`lchamlari, sahifasi, yillik chiqishlar soni, adadlari va rangliligi.....	30
1.4. Bir yillik ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi.....	31
1.5.Yillik bosma qoliplar soni	32
1.6.Qolip tayyorlashga ketgan vaqt me`yori.....	33
1.7.Bosma qolipni o`rnatishga va bosishga ketgan vaqt me`yori.....	34
1.8. A1 o`lchamga keltirish.....	35
1.9.Zaruriy uskunalar sonini hisoblash.....	35
1.10.Bosmaxonadagi ishchilar sonini hisoblash.....	36
1.11.Materiallar sarfini hisoblash.....	37
1.12. Ishlab chiqarish maydonini hisoblash.....	38
II.Iqtisodiy qism.....	39
2.1. Xom ashyo va materiallar sarf hisobi.....	41
III.Mehnat muhofazasi	52
IV.Xulosa	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	61

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" farmoyish imzoladi.

"Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlari yaratish va o'quvchilarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratildi, bunda O'zbekistonda ta'lim berilayotgan yettita tilda darslik va o'quv qo'llanmalari nashr etilmoqda. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko'rsatmoqda",-deyiladi farmoyishda.

Ishchi guruh (A.Aripov) ikki oy muddatda mutasaddi vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, matbuot va axborot hamda axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi yagona davlat siyosatini yurituvchi vakolatli davlat organini belgilash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini rivojlantirishni inobatga olgan holda tegishli kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun kiritadi. [1]

Matbaachilik sohasida ham mustaqillik davrida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Amalga oshirilayotgan islohotlar sohada ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritish uchun zamin yaratish bilan birga, barqaror rivojlanishiga keng imkoniyatlarni yaratib berdi. Mustaqillik yillarda ushbu tarmoqni rivojlantirish yo'lida sohaning huquqiy-me'yoriy bazasini shakllantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida matbaa faoliyatini tartibga solish to'g'risida»gi 52-son qarori , 2002 yil 27 dekabrda «Matbaa korxonalarini ro'yxatga olish va hisobga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 454-son qarori , 2006 yil 16 aprelda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan № 1561 raqami bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 2006 yil 15 martdagi «Nashrlarni chop etish qoidalarini tasdiqlash haqida»gi 29-

sonli buyrug‘i shular jumlasidandir. Davlatimiz tomonidan yaratilgan keng sharoit tufayli matbaa korxonalarining rivojlanishi, sohaga yangi texnologiyalarning kirib kelishi bilan ichki bozorimizdagi matbaa mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj qondirila boshlandi. O‘z navbatida bu jarayon ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshib borishiga ham olib keldi. [2.1]

Nashriyotlar, ommaviy axborot vositalari tahririyatlari va matbaa korxonalarida gazeta va ofset qog‘ozidan oqilona foydalanish va zamonaviy axborot hamda matbaa texnologiyalarini joriy etish ishlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bularga nashriyotlar faoliyatini muntazam monitoring qilib, nashr etilayotgan bosma mahsulotlar sifatini oshirish, kitob bozorida sog‘lom muhitni ta‘minlash bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshiradi.

O‘rganishlar va tahlillar natijasida mamlakatimizdagi nashriyot-matbaa korxonalarini metal qolipga o‘tkazish jarayoni barham topib, ish va vaqt hajmi keskin qisqardi.

Biz bugun 2016-yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o‘tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur‘atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o‘tdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo‘jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko‘rsatkichidan past bo‘ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o‘ylab yondashish natijasidir.

2016-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig‘ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yoʻnaltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qoldi va umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz berayotgan jiddiy sifat oʻzgarishlari alohida eʼtiborga sazovordir.

Telekommunikatsiya uskunalari, kompyuter texnikasi va mobil telefonlar, keng turdagi maishiy elektronika mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi zamonaviy korxonalar tashkil etilmoqda. Iqtisodiyotimizning deyarli barcha tarmoqlari modernizatsiya qilinib, amalda texnologik jihatdan yangilanmoqda.

Ana shunday oʻzgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi hozirgi vaqtda 24,2 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Holbuki, bu koʻrsatkich 2000-yilda 14,2 foizdan iborat edi. [2]

Mamlakatimizda isteʼmol tovarlari ishlab chiqarishni tubdan oshirish boʻyicha oʻz vaqtida koʻrilgan chora-tadbirlar ham amaliy samarasini bermoqda.

Mavzuning dolzarbligi: tanlangan mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy jamiyatda ommaviy axborot vositalarining tutgan oʻrni juda kattadir va biror bir gazetaning ommabopligiga uning matbaaviy ijrosi sifati katta taʼsir koʻrsatadi, yaʼni gazetaning bezalishi ham katta ahamiyatga ega boʻladi. Shuning uchun gazeta nashrlarini bosmaga tayyorlashning barcha prinsiplarini va maketni tayyorlashga nisbatan barcha talablarni bilish muhim. Gazetaning tashqi koʻrinishi, uslubi, chiroyliligi maketni qanday yaratishingizga: ustunlarni, rasmlarni qoʻyishingizga, matn uchun tanlangan shriftga, uni qanchalik chiroyli qilishingizga va boshqa koʻp jihatlarga bogʻliq. Gazetaning sifati qogʻozga bevosita bogʻliq, shuning uchun maketni tayyorlaganda gazeta qaysi qogʻozga bosilishini hisobga olish zarur.

Gazeta – bu qisqa vaqt oraliqlarida bosilib chiqadigan davriy nashr boʻlib, dolzarb ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ishlab chiqarish va boshqa masalalarga taalluqli rasmiy materiallar, tezkor axborot va maqolalarni hamda adabiy asarlar va reklamani oʻz ichiga oladi. Turi va maqsadiga koʻra gazetalar turli bosilib chiqish muddatlariga - haftasiga birdan besh martagacha, turli adad va bichimlarga ega boʻladi. Gazeta muayyan tadbir – konferensiya, festival va hokazolar bilan

cheklangan qisqa vaqt davomida chiqarilishi mumkin. Asosiy nashr bilan bir qatorda, gazeta ilovalar hisobiga kengaytirilgan ko`rinishda chop etilishi mumkin. Gazetalar umumsiyosiy yoki ixtisoslashgan bo`lishi mumkin, ular jamiyat hayoti, fan, texnika va boshqa faoliyat sohalarini yoritadi va muayyan o`quvchilar toifalariga mo`ljallanadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishdan maqsad: Namangan shahar sharoitida gazetalar chop etish sexini yangi texnikalar bilan takomillashtirish, gazeta nashrini bosmaga tayyorlash va bosish jarayonlarining ko`rib chiqishdan iborat.

I. Texnologik qism

Gazeta – bosma mahsulotning axborotga boy eng tezkor turi, shuning uchun moddiy texnika bazasining rivojlanish tezligi hech kimni ajablantirmaydi.

Chet ellarda esa fleksografik bosmada gazeta bosish texnologiyasini qo'llash davom etmoqda. Gazetani markazlashmagan holda bosish imkonini beruvchi, o'z ichiga yuqori tezlikli fototelegraf apparatura bilan bir qatorda yo'ldoshli aloqani ixtiro qilinishi esa gazeta bosish olamida fan va texnika rivojining katta yutug'i bo'ldi.

Hozirgi gazeta nashriyoti kichik, o'rta, yuqori adadli gazetalar chiqarishni ofset usuliga o'tkazish asosiy tendentsiya bo'lib qolmoqda. Lekin ofset usulining qo'llanishi qiyinchiliklarsiz o'tayotgani yo'q.

Bu usulda gazetalar nashr qilinganda ofset qoliplar, bo'yoq va qog'ozlarning yuqori narxda bo'lishi, yuqori tezlikdagi bosma uskunalarida qog'oz chiqitlarining ko'payib ketishi va bosma uskunalarining ko'p maydonni egallashi ishga to'siqlik qiladi. [3]

Bir qator chet mamlakatlar (asosan AQSh va Skandinaviyada) keng ommalashgan «Di-lito» usulini yuqori va ofset usullari orasidagi kelishuv sifatida qabul qilish mumkin. Bu usulning nomi to'g'ri tekis bosma bo'lib unda tasvir ofset bosma kabi yuqori bosma rotatsion uskunalar uchun an'anaviy bo'lgan ikki silindrli bosma apparatini saqlash imkonini beradi.

Shuning uchun yuqori bosma uskunalarini «Di-lito» usuliga aylantirish bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Bosma sektsiyalariga namlovchi apparatlarni o'rnatish va namlovchi eritmalarni tozalab beruvchi avtomat boshqarish pultini sozlash.

2. Bo'yoqni qatlamlanib ketishini oldini olish maqsadida bo'yoq apparatidagi po'lat silindrlarni moslash.

3. Qolip silindrlarini ular ustida ofset bosma qoliplarni o'rnatishga xizmat qiluvchi kalibrlangan taglik bilan ta'minlash.

4. Yuqori bosmaning an'anaviy bo'lgan dekel rezina mato plastinalari va unga mos keladigan tagliklar bilan almashtirish.

5. Bosma qoliplarni bosishga tayyorlash uchun, bosma qoliplar chetlarini buklab qo'yuvchi moslamani o'z ichiga olgan jihozlarni qo'llash.

AQSh «Dal'gren» firmasining keng tarqalgan namlovchi apparati namlovchi eritmani bo'yoq apparatining valiklaridan biriga uzatadi.

«Di-lito» usulida bosishda avvalo yuqori tezlikdagi protsessorlar yordamida negativ nusxa ko'chirish usulida bosma qoliplar tayyorlanadi. Negativ tayyor bo'lgandan keyin birinchi bosma qolipni tayyorlaguncha sarf qilingan vaqt besh daqiqadan oshmaydi.

«Xarris», «Goss» (AQSh), «Al'bert Frankental'», «Köning & Bauer» (Germaniya), Vifag (Shveytsariya) va boshqa gazeta bosma uskunalarini ishlab chiqaruvchi mashhur firmalar turli mamlakatlarda yuqori bosmaning rulonli rotatsion uskunalarini «Di-lito» usulida bosishga aylantiruvchi qo'shimcha jihozlar to'plamini ishlab chiqaradi va tarqatadi. Bu usulning imkoniyatlarini aniq tahlil qilish uchun uning yutuq va kamchiliklari ustida to'xtab o'tamiz.

«Di-lito» ning yutuqlariga quyidagilarni kiritamiz:

a) fotopolimer bosma qoliplar tayyorlash uchun ketgan harajatdan ofset plastinalar va qurilmalari uchun ketgan harajatning nisbatan kamligi;

b) fotonabor bilan to'la mos kelishi;

v) bosma qoliplarini tayyorlash uchun lazerli texnikani qo'llash imkoniyati mavjudligi;

g) fotopolimer bosma qoliplarni qo'llash uchun ishlatiladigan negativlarga nisbatan negativlarga talablarning kamligi, va shundan kelib chiqib arzonroq fototexnik plyonkalarini qo'llash imkoniyati.

d) ayrim holatlarda yuqori bosma bo'yoqlarini ishlata olish imkoniyati.

e) bosma tasvirning ofset bosma darajasiga o'rtacha mos keladigan yaxshi sifati.

j) bo'yoqlar chang bo'lishining to'liq oldi olinishi va qog'oz tasmasining yirtilish holatlarini kamayishi.

Tashkiliy – iqtisodiy ko'rsatkichlarga nisbatan «Di-lito» usulining qo'llanilishi ofset bosmaga o'tish uchun bosqich va sarf –harajatlar kamligi bilan bir qatorda yuqori malakali ishchilarni ofset bosmaga amaliy o'rgatish lozimdir.

Shuningdek, bu usulga mansub kamchiliklarini ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi.

1. «Di-lito» usuliga o'tishdagi sarflanadigan sarf –harajat miqdori fotopolimer bosma qoliplarni tayyorlashga ketadigan mablag'dan yuqori.

2. Qog'ozni chiqitga chiqarish 0,5 - 4,0% rulonni o'rnatish qurilmasining turi, avtoelimlovchi yoki usiz va qatorma –qator bosma qoliplarni almashtirish chastotasiga qarab yuqori bosmaning ko'rsatkichlaridan yuqori.

3. Bir qancha sabablarga ko'ra bosma mahsulot sifatining yetarli darajada barqaror emasligi.

a) ko'p bo'yoqli bosmada bo'yoqni qabul qilish qoniqarli emasligi.

b) o'rta yarim tusli va soyalarda, ayniqsa yuqori bosma bo'yoqlarni spirtli namlovchi eritmalar bilan birga ishlatilganda tasvirning bo'yoq bilan to'lib qolishi,

v) tasvir konturlarining aniq emasligi –dekel qalinligining bosish jarayoniga mos kelmaydigan qalinligi (qog'oz xususiyatlari, bosma tezligi, bo'yoq qatlamining qalinligi, uning qattiqligi ma'lumki, eng kam texnologik buzilishlar qattiqligi Shor bo'yicha 70^0 dan 90^0 gacha bo'lgan dekellar ishlatilganda ro'y beradi).

g) bosma qolipning qirralariga bo'lgan bosimning yuqoriligi, qolip silindrning bosh aylanasi bo'ylab to'yingan bo'yoqlarda chiziqlar paydo bo'lishi;

d) qog'ozning chang bo'lishi (aytish kerakki, ofset bosmadan ko'ra kamroq) va uning yulinishi; bosma qolipda qog'oz tolalarining tasvir mayda detallarida to'planib qolishi (asosan o'rta tuslarda) qolipning ishqalanish natijasida tez ishdan chiqishi;

e) namlovchi eritmaning xususiyatlariga ta'sir etuvchi eritmani yetkazib beruvchi manbaning o'zgarishi;

4. Bosma qoliplarni adadga chidamliligi nisbatan pastligi: bir bo'yoqli bosmada 100 ming va ko'p bo'yoqlida 50 ming gacha;

5. Ofset bosma va «Di-lito» usulining bo'yoqlari yuqori bosma usulining bo'yoqlariga nisbatan arzonligi bilan taqqoslanadi.

6. Namlovchi apparatlar borligi uchun bosma qolip silindrlariga yetib borish ko'pincha qiyinchiliklar tug'diradi, va bu bosma qoliplarni tez o'rnatish va almashtirishga halaqit beradi.

7. Namlovchi eritmaning qo'llanilishi zanglashni oldini oluvchi chora tadbirlar ko'rilishini talab qiladi.

Shunday qilib, «Di-lito» usuli ozmi - ko'pmi uzoqroq kelajakka mo'ljallangan alohida mustaqil texnologik variant sifatida qabul qilina olmaydi.[4]

Rotatsion bosma uskunani o'z vaqtida va sinchkovlik bilan adadga tayyorlash gazetani qisqa muddatlarda bosib chiqarishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun maxsus gazeta korxonalari va yirik bo'limlarda maxsus mexanik xizmati tashkil qilinib, ularning zimmasiga uskunalariga xizmat ko'rsatish, sozlash va texnik ko'rikdan o'tkazish, ya'ni uskuna va agregatlarni butun ishlab chiqarish davomida uzluksiz va ishonchli ishlashini ta'minlash yuklanadi.

Gazetani stereotip qoliplar yordamida bosadigan bosish jarayoni texnologik tizmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Uskunalar holatini tekshirish, odatda qog'ozni o'tkazish va bosma qolipni o'rnatishdan avval bajariladi, shuningdek elektr jihozlarining nazorati, dekel holatini bo'yoq apparati silindrlari va valiklari, qog'oz chiqaruvchi tizma, buklash apparatlarini tekshirish va nazorat qilish shuningdek uskunalarni 10-30 minut davomida yurgizib sinab ko'rish.

2. Qog'oz rulonlarni sozlash qurilmasiga o'rnatish, qurilmani avtomatik yelimlashga tayyorlash, qog'ozni bosma uskunaga o'rnatish. Zarur bo'lgan miqdordagi kerakli eng ega bo'lgan (ikkitalik yoki bittalik) rulon qog'ozlari transpartyorlar yordamida bosma uskunasiga keltiriladi.

Elektromexanik avtoyelimlovchi tuzilma ishchi qog'oz tasmasining pastki qismi va yangi qog'oz tasmasining boshlanish qismini birlashtirish uchun mo'ljallangan. Yirik va o'rta adadli gazeta mahsulotlarini bosishda avtoelimlovchi

rulonlarni almashtirishga sarflanadigan vaqtni qisqartirish qog'ozni chiqitga chiqarishni kamaytirish imkonini beradi.

Qog'ozni uskunaga o'rnatish gazetaning hajmi va rangdorligini, bosma sektsiyalarini joylashishi va qog'oz o'lchamini hisobga olgan holda maxsus tizma asosida amalga oshiriladi.

3. Bo'yoq apparatlarini ishga tayyorlash. Bu jarayonni yuqori tezlikka ega bo'lgan gazeta uskunalarini va agregatlarda bajarishning o'ziga xos tomonlari eng avvalo ulardagi bo'yoq apparati markazlashgan tarzda quvur o'tkazgichlar orqali berilishi bilan bog'liqdir. Bu bir tomondan adadni bosish jarayonidagi bo'yoq sarflanishi, boshqa eritmalarini qurimaydigan mineral moylar va qog'ozga tanlab singish yo'li bilan yopishadigan bo'yoqlar ishlatilishi bilan asoslangan. Shuning uchun bo'yoq apparatini oldindan ishga tayyorlash shundan iboratki, uskunani sekin harakatga o'tkazilgandan keyin va yakka plunjerli so'rg'ichlarni harakatga keltirib, duktor vali, silindrlar va valiklarni bo'yoq bilan qoplash –bo'yoq qalinligini me'yorlashtirish. Bo'yoqni taqsimlash davomiyligi bo'yoq markazi va bosmaxona bo'limidagi haroratga qarab 10-25 minutni tashkil qiladi.

4. Bosma apparatni ishga tayyorlash. Bu jarayonning asosiy mazmuni va mohiyati dekellar holatini tekshirish va lozim bo'lganda ularni to'liq yoki qisman almashtirish. Gazeta uskunalari va yuqori bosma agregatlarida odatda 2-3 qatlamdan iborat dekellar ishlatiladi. Ular kitob –jurnal uskunalari dekellariga solishtirganda taxminan ikki barovar qalinroqdir (Rossiya gazeta agregatlarida 4-4,5 mm, chet el gazeta agregatlarida 3 – 3,5 mm). Shuning uchun gazeta bosishda ishlatiladigan asosiy materiallar polimer va polimerli asoslar hisoblanadi. Ushbu barcha materiallar dekel tarkibida 2 - 4 oy davomida ishlatiladi, undan keyin esa ular almashtiriladi. Tekshirib ko'rilgan dekel bosma silindri yuzasiga tortiladi.

5. Buklash –qirqish apparatini ishga tayyorlash. Bu qurilmalarda taxlangan qog'oz tasmalarni gazeta o'lchamiga qarab ko'ndalangiga yoki gazetaning bir nusxasi ikkinchisidan ajratish uchun kesiladi va ikkinchi buklashdan keyin gazetani qabul qilish qurilmasiga uzatiladi. Bu qurilmalarni ishga tayyorlash ularning ayrim mexanizmlari uzatkichlari bilan ishlaganda ishga tushib ketishi

mumkin elementlarni tekshirishdan iborat. Hammasini qo'shib hisoblaganda 1- 5 jarayonlar mohiyati gazeta uskunalari va agregatlarini adadni bosishga tayyorlashdan iborat.

6. Stereotiplarni qolip silindrlariga o'rnatish. Bir vaqtning o'zida A2 o'lchamli gazetalar (yoyilgan holdagi o'lchami 84x59,5 sm), A3 (59,5x42 sm) ishlab chiqarish mumkin bo'lgan gazeta uskunalari va agregatlarida odatda, 59,5x42 sm o'lchamli stereotiplar ishlatiladi. Bunday stereotiplar uskunalariga maxsus osma transpartyorlar orqali uzatiladi va yordamchi ish maydonida har bir uskuna sektsiyasi yoki agregat yoniga aniq tartib bilan uzatiladi. Stereotiplarni joylashtirish tartibi sahifani tushirish tizmasiga qarab aniqlanadi. Stereotiplarni bosma qolip silindrlariga birin – ketin o'tkazilganida ular maxsus qisqichlar yordamida yopishtirilib, ularning soni va tuzilmasi bosma qolip silindriga o'rnatilishi kerak bo'lgan stereotiplar miqdori bilan aniqlanadi. Stereotiplarning og'irligi va yuqori tezlikda bosib chiqarish jarayonida markazga intiluvchi kuchlar mahkamlovchi tuzilmaning ishonchliligiga juda yuqori talablar qo'yadi.

7. Namuna nusxa tayyorlash va gazeta sahifalarini keltirish. Keltirishdan maqsad – nusxa qatorlarni varaqda to'g'ri joylashishini ta'minlash. Keltirish (kitob, jurnal rotatsion yuqori bosma uskunalaridagidek) stereotiplarni namuna nusxada bosma qolip silindrlari va radial o'qi atrofida maxsus mexanizmlar yordamida o'tkaziladi.

8. Stereotiplarni pripravka qilish. Gazeta ishlab chiqarishda bu jarayon kitob – jurnal bosib chiqarishga qaraganda qisqaroq vaqt ichida bajariladi. Yuqorida aytilganidek, gazeta uskuna va agregatlarida tez shakli buziladigan dekellar ishlatiladi, boshqa tarafdin esa bosma qoliplarining qalinligi 11,1 mm bo'lgani holda, bosiluvchi elementlarning balandligi asos –plastina bilan birgalikda bor yo'g'i 5-6 mm, aynan shunday uyg'unlik pripravka davomiyligini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Pripravkani yengillashtirish va tezlashtirishga kontaktning butun sahifa bo'ylab bosma juftlarini umumiy bosimini sozlash, yani qolip va bosma silindrlar orasida shunday oraliq qoldiriladiki, bunda maydonlardagi bosma elementlarga bo'lgan bosim muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bosma juftlik elementlari orasidagi masofa bosma qolip silindrining maxsus ekstsentrik moslama yordamida markaz o'qini ko'chishi bilan o'zgaradi. Aynan uskunaning o'zida amalga oshiriladigan pripravka uskunalarining kichik ish tezligida olingan nusxalarga ko'ra bajariladi. Yuqori bosimga ega maydon nusxalari bu holda kesib tashlanadi. Rastrli illyustratsiyalarni pripravka qilishda matnlarga nisbatan ko'proq bosim kerak bo'ladi.

Stereotiplar matritsadan quyib olinadi (bosmaxona terma qoliplaridan farqli klishelar bo'yi 0,2 mm ga matn qatorlari bo'yidan baland) shuning uchun yanada mehnat talab qiluvchi qo'shimcha pripravka kerak.

Shuning bilan bir vaqtda, aytib o'tish kerak, gazeta qabul qilish bo'limlarida quyilgan stereotiplar odatda yanada kengaygan, asl nusxa bosma qoliplardan farqli ravishda odatdagilarga qaraganda kamroq adadni bosishga yaraydi. Bu o'ziga xos bosimni kamaytirish va bosishning kontakt doirasida deformatsiyani kamaytirishga yo'naltirilgan bir bosqichli bosma qoliplar ishlatib stereotiplardan bosishda aniq va shu bilan birga yanada bo'shroq matn pripravkani, qattiq dekellar ishlatishni, valiklarini bosma qoliplarga bosish kuchini sozlashni talab qiladi.

9. Bo'yoq uzatishni yakuniy sozlash. Bu jarayonning maqsadi –barcha gazetalarda tasvirning yanada tiniqligi va to'yinganligini ta'minlash. Bu ish pripravka tugaganidan keyin uskunani ishga qo'shganda ilgari ma'lum bo'lgan uslub va yordamchi vositalar yordamida bajariladi.

Bo'yoqni sozlash va uzatish gazetaning birinchi sahifasidan boshlanadi va keyingi sahifalarni joylashishiga qarab davom etadi. Shu tarzda – chapdan o'ngga gazetaning orqa tomoniga bo'yoq uzatish va bosish amalga oshadi. Bu sozlashning so'nggi bosqichi –bo'lim rahbariyati tomonidan etalon nusxani tasdiqlatib olishdir.

10. Adadni bosish. Bu texnologik jarayonning yakuniy bosqichi bo'lib gazeta mavjud texnik ko'rsatkichlarga mos ekanligi tasdiqlangandan keyin amalga oshiriladi. Adadni bosish jarayonida quyidagi kamchiliklarga duch kelish mumkin: juda yuqori bosimda ishlaydigan stereotiplardan bosishda bo'yoqning chaplanishi, chiqit bo'lgan gazetalarning ko'payishi va hokazo. Shu kabi barcha kamchiliklar

gazeta ishlab chiqarish muddatlarini juda ham tezkor ekanligini nazarda tutgan holda nihoyatda tezkorlik bilan bartaraf qilinishi kerak.

Hozirgi zamon gazeta ishlab chiqarishga, yuqorida aytganidek fleksografik usulida fotopolimer bosma qolip texnologiyasini qo'llash muhimdir. Hozirgi kunda to'plangan tajriba bu texnologiyaga sarf qilingan mablag' va mahsulot sifati nuqtai nazardan qaraganda raqobatbardoshligini oshirish imkonini bermaydi. Ammo bo'yoqni sozlashlarsiz bosma qolipga uzatish va suv asosidagi bo'yoqlarni ishlata olish imkonini bera olishi so'zsiz uning yutuqlaridan biridir.

Birinchi fleksografik gazeta uskunalari qator chet el mamlakatlari jumladan, AQSh, Germaniya, Italiya, Frantsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlar bosmaxonalarida XX asrning 80- yillarining boshida paydo bo'ldi.

Bu uskunalaridan foydalanish bilan birga ayni fleksografik bosmaning texnologik yutuqlari ham ko'zga ko'rindi. Bu bosma qolip o'rnatishning soddaligi, bosma tezligining yuqoriligi, bo'yoq apparatni ishga sozlashni osonligi yuqori bosma yoki ofset bosmalarga nisbatan olganda bo'yoqning kam sarf qilinishi, tasvirning bo'yalish va ikkilanish hollari yo'qligi, changlanish, bo'yoqlarning chaplanish hollarini minimum ekanligi, ammo fleksografik fotopolimer bosma qolip va bo'yoqlarning narxi hamon juda balandligi uning kamchiligidir.

Fleksografik usulda gazeta bosuvchi uskunarlar odatda bir bo'yoqli bosish sektsiyalari tuzilishiga ko'ra quriladi va barcha boshqa katta tezlikda ishlovchi uskuna va agregatlarga xos bo'lgan barcha ishchi elementlariga ega. Bular rulonni o'rnatish qurilmasi, gazeta o'lchami va rangdorligiga qarab o'zgaruvchi qog'oz tasmani o'tkazuvchi tizim, buklash –qirqish apparati va bunga qo'shimcha tarzda bo'yoqni avtomatik tarzda yuvib turuvchi moslama, almashinuvchi duktor vallar va tez harakatlanuvchi rakel tizimlar.

Nova va Supernova seriyasiga mansub fleksografik uskunasi rakel tipidagi bir valikli bo'yoq apparatidan iborat bo'lib Italiyadagi «Cherutti» firmasida ishlab chiqarilgan. Bundan tashqari fleksografik uskunarlar yuqori va ofset bosish uskunalariga o'rnatilishi mumkin bo'lgan ayrim sektsiyalarini ishlab chiqarish bilan AQSh, Germaniya va Yaponiyaning ayrim firmalari shug'ullanadi.

Umuman olganda fleksografik gazeta bosmasi keng o'rganilgan va tarqatilgan texnologiyalar asosida o'zining texnologiyasi, kam xarajatliligi, qator ijtimoiy – ekologik masalalarni echish imkonini bera olishi bilan diqqatga sazovor va o'rta va kichik adadli gazetalar bosish sohasida kelajakda rivojlanishi muqarrar.

Bu yo'nalish hozirgi zamon gazeta ishlab chiqarishda asosiy o'rin tutadi. Gazeta uskunalarini ishlab chiqarish bilan AQSh, g'arbiy va sharqiy Evropa va Yaponiya band. Bu uskunalar yuqori tezlikka ega bo'lgan, ishonchli sozlash texnika bilan boyitilgan uskunalardir. Ularning bosish apparatlari ko'proq to'rt silindrlil tizma «rezinadan rezinaga» asosida bo'lib katta tezlik bilan ishlaganda eng qulay variantdir. Fazodagi joylashish variantlari – qavatli va parterli. Bo'yoq apparatlari asosan Germaniyaning «Plamag» firmasida ishlab chiqarilgan ko'p bo'yoqli va ko'p rulonli «Rondoset» agregatlari keng tarqaldi, shuningdek Rossiyada ishlab chiqarilgan bir rulonli va ikki bo'yoqli gazeta uskunolari ПОГ-90 seriyasi (A2 va A3 o'lchamdagi gazetalar uchun), ПОГ- 60 (A3 va A4) Germaniyaning «Köning & Bauer» firmasi litsenziyasi asosida ko'p sektsiyali ПОГ-168 (katta adadga ega bo'lgan A2 va A3 o'lchamli gazetalarni bosib chiqish uchun) agregatlarini ishlab chiqish o'zlashtirildi. Shuning bilan birgalikda Rossiyada ishlab chiqarilayotgan gazetalarining rangliligi yaqin orada 1+1, 2+1, 2+2 va alohida hollarda- 4+2 va 4+4 (ko'p adadli A3 o'lchamli gazetalar uchun) qo'llanilmoqda. [5]

Gazetani ofset usulida bosish jarayonining umumlashtirilgan texnologik tizmasi quyidagi ko'rinishga ega.

1. Bosma apparatlarini ishga tayyorlash:

- 1) ofset silindrlarga rezina matoli plastinalarini tortish.
- 2) bosma qoliplarni belgilar va shriftlar bo'yicha o'rnatish, mustahkamlash.
- 3) dekel plastinalarini 5-10 minut davomida ishlatib ko'rish va ularni qo'shimcha tarzda yana tortib qo'yish.

2. Namlovchi apparatlarni ishga tayyorlash:

- 1) surtuvchi va namlovchi valiklarni silindr va bosma qolipga (valik va bosma qolip o'rtasida 0,2-0,3 mm bo'lgan oraliq masofa qoldirib) moslab joylashtirish,

2) duktor valini taqsimlovchi silindrga joylashtirish.

3. Bo'yoq apparatini ishga tayyorlash:

1) surtuvchi valiklarni taqsimlovchi silindrga va bosma qolipga sozlash.

2) taqsimlovchi valiklarni taqsimlovchi silindrga sozlash.

3) bo'yoq taqsimlovchi tizimni sozlash.

4) bo'yoqni bo'yoq taqsimlovchi tizim bo'ylab yoyish.

4. Tasma uzatuvchi qurilmani ishga tayyorlash va tekshirish.

1) rulon qog'ozlarni tirgaklarga o'rnatish,

2) rulonni tasma o'tkazuvchi zanjir boshigacha o'tkazish,

3) rulon tasmasini bosma apparatlari orqali buklash apparati voronkasidan chiqquncha avtomatik o'tkazish,

4) rulon tasmasini varonka va buklash –qirqish apparati orqali olib o'tish,

5) moslamani avtomatik elimlashga tayyorlash.

5. Rulon tasmani avtomat nazorat qiluvchi tortish tizimini ishga tushirish.

Uskunani 5-7 ming nusxa/s tezligida ishga tushirish va buklash apparati ishini tekshirish.

6. Bosma qoliplarni dekstrindan tozalash va ofset matolarni yuvish.

7. Namlanishni yoqish va «suvda» 20-30 sek 5-7 ming nusxa/s davomida namlovchi valiklar yordamida bosma qoliplarni ishonchli namlash. Bo'yoqni surtish, bosimni sozlash va namuna nusxalarini tayyorlash,

8. Namuna nusxaga qarab sahifa tushishini to'g'rilash, bo'yoq berilishining bir tekisda ekanligini tekshirish.

9. O'lchovlarda noaniqliklarni bartaraf qilish, uskunani 10-12 ming nusxa/s tezligida yoqish va bo'yoq namlovchi eritma uzatilishini yakuniy sozlash.

10. Nazorat nusxani tasdiqlash va uskunani (kerakli sektsiyalarini) ish tezligida ishga tushirish.

Adadni bosish jarayonida bo'yoq barqarorligini ushlab turish alohida ahamiyatga ega. Namlovchi eritma uzatishning buzilishi, bosilgan mahsulotning tashqi ko'rinishida sezilgan hollarda zarur chora tadbirlar qo'llaniladi.

Gazeta (kitob va jurnallar ham) ishlab chiqarishda rulonli ofset bosma muhim ahamiyat kasb etadi:

a) to'g'ri dekel qalinligiga rioya qilish (plastinaning qalinligi taglik bilan birgalikda ofset uskunaning modeliga qarab 2,0-2,5 mm chegarasida me'yorga keltiriladi, bu holda qog'oz tasmasining tortilishini ta'minlash uchun bu o'lcham har bir keyingi juft uchun 0,02 – 0,03 mm gacha kengayishi kerak).

b) namlovchi eritma pH miqdorini mustahkam ushlab turish (gazeta bosishda 5,6-6,5 mm oralig'ida).

v) bo'yoq apparatidagi bo'yoq haroratini ushlab turish.

g) qog'oz changining rezina mato plastinalariga yopishishi va yomon ta'sir o'tkazishini o'z vaqtida oldini olish.[6]

Asosiy matbaa ijro sifati va gazetaning tashqi ko'rinishini bosma qolip materialari, bo'yoqlar va qog'ozning bosma –texnik xususiyatlari belgilaydi.

Gazeta bosishda ishlab chiqarishni yangi zamonaviy texnik asoslarga o'tkazish muhimdir. Bu muammoni hal qilishning eng ratsional yo'llaridan biri bu gazetalarni tuman va viloyat bosmaxonalarida bosishda markazlashgan bosishga, axborotni aloqa kanallari orqali uzatish, bu bosmaxonalarda tahririyat bilan ikki tomonlama aloqa qilish uchun nusxa ko'chiradigan apparatlariga, rulonli ofset uskunalariga va fotonaborlarga ega bo'lishi lozim. Hozirda aloqa kanallari orqali illyustratsiyali materialni uzata oluvchi apparatlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish tashkil etilmoqda. Bunday holda bosmaxonalarda barcha bosishgacha bo'lgan jarayon – matnli va rasmlı fotoqoliplarni tayyorlash, sahifalarni sozlash, bosma qoliplarni tayyorlash ishlari bajarilmoqda.

Gazeta bir necha turlarga bo'linadi: Umumsiyosiy gazeta – mamlakatning ichki va tashqi siyosati masalalarini, shuningdek, xalqaro hayotni muntazam yoritib boruvchi gazeta. Bosib chiqarish va tarqatish joyi bo'yicha quyidagi turlari mavjud:

respublika; o'lka, viloyat, shahar, kam adadli gazetalar.

Ixtisoslashgan gazeta – jamiyat hayoti, fan, texnika, madaniyat va boshqa faoliyat sohalarini muntazam yoritadigan hamda muayyan o`quvchilar toifalariga mo`ljallangan gazeta.

O`quvchilar ommasi bo`yicha quyidagi turlari bor:

-professional gazeta; turli malakaga ega bo`lgan mutaxassislariga mo`ljallangan gazeta; kasaba uyushmalari gazetasi va hokazo.

Gazetaning maxsus soni – kerakli axborotni o`quvchiga tezkor etkazish uchun asosiy gazetaning sayyor yoki ijtimoiy tahririyati tomonidan tayyorlangan, joriy va yalpi sonlariga, nashr etish sanasiga ega bo`lgan, cheklangan muddat davomida bosib chiqariladigan gazeta. [7]

1.1. Gazeta nashrlari uchun uskunalar tanlash



1-rasm. Kompyuter Apple 27 Core 2 Duo

Apple rusumidagi kompyuterlarning har birini “afsonaviy” , va “taniqli” va “zo`r” deb atash mumkin. Shunday kompyuterlar qatoriga iMAC rusumidagi kompyuterlarni kiritish mumkin. Chiroyli dizayn, yuqori ishlash samaradorligi, yuzfoiz ishonchliligi, yuqori sifat bu iMAC kompyuterlarining vizitkasi hisoblanadi. iMAC kompyuterlarining ekranlari rasshireniyasi 1920x1080 piksni tashkil qiladi. Shuning hisobiga ekrandagi tasvir yanada yarqinroq va aniqroq ko`rinadi. Alyuminiy hozirgi kundan chashka va qoo`iqlar tayyorlash urfdan qolgan, ularning o`rniga alyuminiydan noutbuklar uchun korpuslar tayyorlanmoqda. Yangi iMAC rusumidagi kompyuter bloklari ham alyuminiydan tayyorlangan bo`lib, undan faqat bittagina shnur chiqarilgan. iMAC kompyuterlari to`plamiga alyuminiy tayyorlangan simsiz klaviatura, simsiz innovatsion

kompyuter sichqonchasi kiradi. iMAC kompyuterlari ikki yadroli 3.06 GGs chastotali Intel Core 2 Duo protsessori qurilmani tez va aniq ishlashini ta'minlab beradi. Protsessor kompyuterlari 4 gigabayt xotiraga ega bo'lib, uni 4 SO-DIMM slotov bilan 16 GBaytgacha ko'tarish mumkin. Qattiq diskni hajmini oshrishga hojat yo'q, chunki uning hajmi 1 Tbni tashkil qiladi. . iMAC kompyuterlari simsiz Internetga ulanish qobiliyatiga ega.

Kuchaytirilgan grafika. Yuqori aniqlikka ega filmlarni ko'rish, fotosuratlarni qayta ishlash, turli murakkablikdagi o'yinlarni o'rnatish qobiliyatiga ega.

Texnik tafsilotlari

Kategoriyasi	Monoblok
Protsessor	Intel Core i5
Protsessor chastotasi	2.66 GGs
Sistema shinasi chastotasi	1066 MGs
Tezkor xotira	DDR3 4096 Mb
Videosistema	
Videokarta	ATI Radeon HD 512 dan 4850 MBgacha
Ekran	27
Ekran razresheniyasi	2560x1440 piks, 16:9 nisbatda, LED
Qattiq disk	1 TB
Optik qurilmasi	DVD-RW/DL
Ulanish usullari	4x USB 2.0, IEEE 1394, Card Reader Lan
Ta'minot dasturi	Mas OS X 10.6 Snow Leopard
O'lchamlari	52x65x21 sm
Og'irligi	14 kg



2-rasm. Skaner Epson Perfection V700

Yangi turdagi rangli tekis turdagi skanerlar yuqori tezlik, ya'ni oq-qora rasmlarni (11 s) va rangli tasvirlarni (25 s) rejimda ishlash imkoniga ega.

Texnik tavsifnomasi

Skaner turi	planshet
Imkonli qobiliyati	6400 x 9600 dpi gacha
Skanerlanadigan tasvirning maksimal o'lchami	A4
Orginalning maksimal qalinligi	4 D
Skanerlash tezligi: oq-qora tasvir rangli tasvir	11 sekund 25 sekund
Rang chuqurligi	48 bit
Yorug'lik manbai	Ksenonli lampa
Interfeys	USB, DV (IEEE 1394)

Boshqa vazifalari:

-  qog'ozni avtomatik tarzda yuklash
-  list o'lchamini avtomatik tarzda aniqlash
-  fayllarni avtomatik tarzda nomlash



3-rasm. Printer Phaser 7760

Phaser 7760 Rangli lazerli printer

Orginalning o'lchami	A 3
Bosish tezligi:	A4 o'lchamdagi 35/45 bet (rangli/oq-qora)
	A 3 o'lchamdagi 17/22 bet (rangli/oq-qora)
Bir oyda bosish imkoniyati	A4 o'lchamdagi 150000 bet
Konfiguratsiyasi	Phaser 7760 DN+dupleks



4-rasm. Rastrlovchi protsessor Heidelberg Delta Technology

Delta Technology RIP — dasturli apparatli rastrlovchi protsessor, hamma fotonabor avtomatlarini va Heidelberg CtP sistemalarini qo'llab quvvatlaydi. Bu dastur o'zida yuqori sifatli apparatli rastrlash ishlarini olib boradi.

Delta Technology RIP rastrlash protsessori

Asosiy xususiyatlari

- Irrosinal tarzda rastrlash qobiliyati
- Rastrlashning aniqliligi — 0.0000012 gradus va 0.000000015 Lpi
- Plyonkalarni ishlatish jarayonlari funksiyalarini optimalashtiradi

- Ranglarni boshqarish sistemasining mavjudligi
- Trepping moduli
- Saxifalarni elektron montaj qilinishini integratsiyalash stansiyasining mavjudligi
- Rangli nusxa olishning turli uslublari
- OPI serveri
- Rastrlashning maxsus —rozetkasiz, fleksaga o'xshash, stoxastiklar va boshqa usullari

Plyonkali texnologiyada Windows **Computer- to-Plate termal sistemasi**



5-rasm. Agfa Avalon N8 rekorderi

Ushbu qurilma yuqori sifatli mahsulot chiqaradigan hamda V1 to'liq bichimli bosma mashinalariga ega bo'lgan yirik va o'rta tijorat bosmaxonalari uchun mo'ljallangan.

Avalon N8 — 450 x 370 mm dan 1160 x 940 mm gacha bo'lgan bichimdagi termal plastinalarga tasvir tushirish uchun mo'ljallangan yuqori darajali CTP-qurilmadir. Tasvir tushirish texnologiyasi 830 nm lik infraqizil lazerli va vakuum qisqichli tashqi barabandan iborat. Imkonlilik qobiliyati 1200 dan 4000 dpi gachani tashkil etadi.

Lineykada soatiga 10 dan 48 donagacha to'liq bichimli plastinalar chiqarish quvvatiga ega bo'lgan 9 ta model taqdim etilgan. N8-12, N8-22 modellarida nur tushiradigan kallak sifatida optik yoki optik tolali tizim (termal diodlar lineykasi), N8-52 hamda N8-70 modellarida esa GLV (Grating Light Valve) bazasidagi termokallak qo'llanadi.

Avalon N uskunalarining muhim jihati – uning ichiga o'rnatilgan shtiftli moslashtirish tizimidir. Uskunaga joylashtirilgan plastinada teshiklar hosil qilinadi, so'ngra u ana shu teshiklar yordamida barabanga o'rnatiladi va tasvir ham ularga nisbatan hosil qilinadi. Shu tariqa, juda yuqori moslashtirish aniqligi ta'minlanadi.

Avalon N8 ning takroriyiligi ± 5 mkm ni tashkil etadi, bu esa bozordagi eng yaxshi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Avalon N lineykasiga mansub barcha uskunalar nur tushiruvchi kallak sohasida to'planadigan changni olib tashlovchi o'rnatilgan tizim bilan, hamda plastina tizimga kirayotganida undan changni olib tashlovchi tozalash valiklari to'plami bilan jihozlangan. Plastinalar ushbu qurilmaga qo'l yordamida o'rnatilishi (bunda bir plastina nurlantirilayotgan vaqtda ikkinchisini joylashtirish mumkin, bu esa operatorning vaqtini ancha tejaydi), ham shuningdek bir kassetali va ko'p kassetali avtoyuklagichlar vositasida joylanishi mumkin. [8]

Avalon N8-10 ning texnik xususiyatlari

Avalon N8-10	• Boshlang'ich darajali to'liq funksional echim, yuqori ish unumdorligini talab etmaydigan mijozlar uchun. • Agfa ning barcha plastinalarini, shu jumladan, ThermoFuse texnologiyasini ham ta'minlaydi. • Avtomatlashtirish opsiyalarining to'liq doirasidan foydalanish mumkin.
Texnologiya	Tashqi baraban
Lazer	Termal infraqizil lazer, 830 nm
Nur tushiruvchi modul	Diodlar massivi

Lazerning konSTPuksiyasi	optik tizim (E – 16 ta diod, 5 – 32 ta diod)
Modellar va imkonlilik qobiliyatlari	N8-10-E: 2400 dpi N8-10-S: 2400 dpi, 4000 dpi
Lentikulyar bosma va himoyalangan mahsulot ta`minoti	Yo`q
Plastinalarning eng katta o`lchami	1160 x 940mm
Plastinalarning eng kichik o`lchami (kichikroq o`lchamli plastinalar uchun opsiya mavjud)	450 x370 mm
Plastinalarning qalinligi	0,15 — 0,3mm (opsional tarzda — 0,4 mm)
Plastinalar	Thermostar P970, fnergy Elite, :Azura TS, Amigo, LT-2; 830 nm ga sezuvchan boshqa plastinalar
Plastinalarni yuklash	Qo`lda, bir kassetali avtoyuklagich, ko`p kassetali avtoyuklagich
Plastinalarni chiqarib olish	Qo`lda, «liniyadagi» roessor
1030 x 800 mm, 2400 dpi li plastinaning unumdorligi (plastinalarning sezuvchanligiga, rastrlash texnologiyasiga va boshqa omillarga bog`liq)	N8-10-E 8 pl./soat N8-10-S 13 pl./soat
O`rnatilgan teshgich	Birvarakayiga 4 tagacha to`plam ta`minlangan, Teshishning barcha asosiy sxemalaridan foydalanish mumkin
O`lcham (KxUxB)	2440x1295 x 1302 mm
Vazni	1150 kg

SpectroDens Premium esa, Advanced versiyasiga qo`shimcha ravishda kengaytirilgan spektrometrik funksiyalarni bajaradi:

- CIE LChab, xyY, Luv, LCHuv, DIN Lab99
- Delta E94, Delta E2000, Delta E99, Delta Ecmc, Delta Euv
- Metamery index
- Whiteness, yellowness
- Pass-/fail tolerance, average

SpectroDens ga mansub barcha moslamalarning o'ziga xosligi – sifatli spektrometrik o'lchov kallagidir, u ilgari faqat qimmatbaho moslamalardagina bo'lgan. Yangi SpectroDens ham yoqiladigan va o'chiriladigan (tugmachali) qutblanuvchi filtrga ega bo'lib, u oq bo'yoqning absolyut standarti va yuqori imkonlilik qobiliyatiga ega katta grafik displey bilan himoyalangan zaryadlash qurilmasining ichiga o'rnatilgan.

SpectroDens – Basic moslamasini xarid qilgan yanada afzal. Uni ilgorigi R410e densitometrining bahosida sotib olgach, xaridor endi ancha sifatli va aniq moslamaga ega bo'ladi. Shu bilan birga, yangi dasturiy ta'minot yordamida bu uskunani spektrofotometrغا aylantirish mumkin.

SpectroDens Basic densitometrining texnik xususiyatlari:

- Aks etgan nurda o'lchaydigan densitometr
- Bosilgan nusxalar va bosma qoliplarni o'lchash
- O'lchovlar: optik zichlik va optik zichliklarning har xilligi, rang balansi, kulrang bo'yicha balans, rastr nuqtasining nisbiy maydoni, nuqtani kengaytirish, bosmaning kontrasti, bosma qoliplarda nuqtaning kengayishini YUl-Nilsen formulasiga ko'ra aniqlash va n omilini to'g'ri aniqlash
 - Filtr tanlovi: rangni avtomatik aniqlash
 - Zichliklarni o'lchash diapazoni: 0.00 - 2.50 D +/-0.01D
 - Rastr nuqtasini o'lchash diapazoni: 0 - 100% +/-1%
 - Apertura: 3.2 mm Nur manbai: 2856 +/-100 K
 - Kalibrlash: barcha ranglar bo'yicha avtomatik
 - Suyuq kristalli displey: 2 satr, bir satrda 16 ta belgi
 - O'rnatma qutblanuvchi filtr
 - Batareya: NiMH 8.4 V, 1200 mAh (10.000 ta avtonom o'lchov)

- Komplektda: RS uchun interfeys, zaryadlash qurilmasi, tavsifnomasi rus tilida
- O`lchamlari: 56 x 64 x 186 mm

«ROLAND» rulonli ofset bosma mashinasi

«ROLAND» rulonli ofset bosma mashinalari (2003 yil modeli) 2007 yilda yangilandi. Modernizasiya natijasida bosma mashinaning standart komplektasiyasi kengaytirildi, ayrim uzellarning konstruksiyasiga o`zgartirishlar kiritildi, opsional moslamalarni o`rnatish uchun mo`ljallangan assortiment kengaydi. «ROLAND» model qatorining bosma mashinalari asosan A2, A3 va A4 bichimli gazetalarni ko`p bo`yoqlarda bosish uchun mo`ljallangan. Gazetaning eng katta hajmi A3 bichimli 80 tagacha sahifani tashkil etishi mumkin (A2 bichimida esa – 40 ta sahifani). Gazli quritishdan foydalanilgan taqdirda, silliqqlangan qog`ozga bosish mumkin.

«ROLAND» – klassik konstruksiyali bosma mashinasi. «ROLAND» bosma mashinasi minora tipidagi 4+4 bosma seksiyalari (zarur hollarda 4+2 va 4+1 seksiyalari), 1+1 va 2+2 bosma seksiyalari, shuningdek, falsapparatlarning uch xil turi bilan jihozlanishi mumkin. Bosma mashinasiga materialni yo oddiy rulonli zaryadkalar, yoki rulonli avtoskleykalar yordamida uzatish mumkin. Rulonli avtoskleykalarni val tomonidan yoki operator tomonidan bosma liniyasiga nisbatan 90 daraja burchak ostida o`rnatish mumkin. Shu bilan birga, mashinani avtoskleykalar va seksiyalari turli darajalarda joylashtirilgan «balkon» tipida joylashtirish mumkin.

«ROLAND» bosma mashinasining standart komplektatsiyasi

- Bosma jarayonining asosiy sozlagichlarini boshqaruvchi pult (moslashtirish, namlantirish tizimining unumdorligi, bosimni yoqish/o`chirish va hokazo), bu sozlagichlar har bir bosma yarim minorasida joylashtiriladi (bosma mashinasining markaziy pultidan takrorlovchi boshqaruv o`rnatilgan)

- Motorlashtirilgan distansion moslashtirgich

- Bosimni ishga tushirishni pnevmatik boshqarish

- Kontaktsiz cho`tkali namlash

- Harorat avtomatik nazorat qilingan holda namlantiruvchi eritmani uzatish tizimi

- Qolip plastinalarining tez echib olinadigan teshikli mahkamlanishi

- Qulf tipidagi ofset polotnosining tez echib olinadigan tarzda mahkamlanishi

- Ofset silindrlarining qo`shimcha mustahkamlovchi qoplamasi

